

ZAMONAVIY TA'LIM VA MILLIY TARBIYA INTEGRATSIYASINING IJTIMOIIY AHAMIYATI

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy ta'lim jarayonlarining rivojlanib borish tendensiyalari va milliy tarbiya bilan uyg'unlashuvi haqida so'z yuritilgan bo'lib, raqamli texnologiyalarning jadallashib borish jarayonlari va tobora o'zgarib borayotgan dunyoda yosh-avlodning har tomonlama bilimli, yuksak intellektual salohiyat, zamonaviy fikr hamda keng dunyoqarashga ega bo'lishida ta'lim maskanlarining roli, o'quvchi-yoshlarda zamonaviy bilim va ko'nikmalarini shakllanib borishidagi imkoniyatlar hamda buyuk ajdodlarning boy tarixiy merosi va milliy qadriyatlarining o'rni keng tahlil qilinadi. Shuningdek, globallashib borayotgan ijtimoiy muhitda yoshlarning raqamli qaramlikdan saqlash, soxta va yolg'on axborotlar va begona g'oyalardan himoya qilish masalalari asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy ta'lim, milliy tarbiya, innovatsion yondashuv, milliy qadriyatlar, axloqiy tarbiya, madaniy meros, milliy o'zlikni anglash, ijtimoiy mas'uliyat, ma'naviy immunitet, milliy tarbiya konsepsiyasi.

СОЦИАЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИНТЕГРАЦИИ СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ И НАЦИОНАЛЬНОГО ВОСПИТАНИЯ

Аннотация. В статье рассматриваются тенденции развития современных образовательных процессов и их гармоничное сочетание с национальным воспитанием. Особое внимание уделяется ускоряющемуся развитию цифровых технологий и роли образовательных учреждений в условиях стремительно меняющегося мира в формировании у подрастающего поколения всесторонних знаний, высокого интеллектуального потенциала, современного мышления и широкого мировоззрения. Анализируются возможности формирования у учащейся молодежи современных знаний и навыков, а также значение богатого исторического наследия великих предков и национальных ценностей. Кроме того, обосновываются вопросы защиты молодежи в условиях глобализирующей социальной среды от цифровой зависимости, ложной информации и чуждых идей.

Ключевые слова: современное образование, национальное воспитание, инновационный подход, национальные ценности, нравственное воспитание, культурное наследие, национальное самосознание, социальная ответственность, духовный иммунитет, концепция национального воспитания.

THE SOCIAL SIGNIFICANCE OF THE INTEGRATION OF MODERN EDUCATION AND NATIONAL UPBRINGING

Annotation. The article discusses the development trends of modern educational processes and their integration with national upbringing. It highlights the rapid advancement of digital technologies and the role of educational institutions in a rapidly changing world in ensuring that the younger generation becomes well-educated, possesses high intellectual potential, modern thinking, and a broad worldview. The article also analyzes the opportunities for shaping modern knowledge and skills among students, as well as the significance of the rich historical heritage of great ancestors and national values in this process. In addition, it substantiates the issues of protecting young people in a globalizing social environment from digital addiction, false and misleading information, and alien ideas.

Keywords: *modern education, national upbringing, innovative approach, national values, moral education, cultural heritage, national identity, social responsibility, spiritual immunity, concept of national upbringing.*

Kirish. Tarixdan ma'lumki har qaysi bir xalq o'z kelajagi va ertangi kunini teran anglab olgan, oldiga qo'ygan ulug'vor maqsadlariga erishishni ustuvor vazifa sifatida bilgan zaminda ilm-fan, ta'lim va tarbiyaga bo'lgan e'tibor kuchli bo'lganligini bilish va anglash mumkin. Millatni tarixan buyuk qiladigan omillar sirasiga, uning milliy urf-odatlarini, an'analari, ajdodlarining boy tarixiy merosi, milliy qadriyatlarini e'zozlash, unga hurmat va ehtirom ko'rsatish va kelajak-avlodga yetkazishdek mas'uliyatli vazifada o'rnak bo'lish, ma'naviyatli, ma'rifatli xalqni oldida turgan ulkan mas'uliyatdir. Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, aholi barcha qatlamlarining axloqiy tarbiyasiga e'tibor qaratish, har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aynan ta'lim-tarbiya va ma'rifat jamiyat barqarorligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka da'vat etadi, saxovatli, sabr-qanoatli bo'lishga undaydi [1;261]. Bir so'z bilan aytganda, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham – bu ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Bugungi kunda har qanday mamlakatning taraqqiyoti va dunyoda raqobatbardoshligi, avvalo, ta'lim sifatiga, ilm-fan rivojiga bog'liqdir. Qaysi mamlakatda ushbu hayot haqiqatiga yetarli ahamiyat qaratilmasa va strategik dasturlarida aks etmasa, u oxir-oqibat jahon taraqqiyotidan chetda qolishi tayin. Rivojlangan davlatlar nimaning evaziga yuksak taraqqiyot va turmush farovonligiga erishmoqda? Eng avvalo, ilm-fan va ta'lim sohalariga ulkan e'tibor qaratgani tufayli. Bunday davlatlarda ta'lim va innovatsion tizimlar, axborot kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasini modernizatsiyalash, tegishli institutsional muhitni yaratish kabi masalalarga barqaror taraqqiyotning strategik omillari sifatida qaralib, tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [2;121]. Ijtimoiy hayotning barcha sohasi globallashtayotgan biz yashayotgan davr mohiyat mazmuni bilan o'ziga xos tarixiy mazmunga boy bo'lgan davrdir. Insoniyat tarixida doimo sodir bo'lib kelgan ijtimoiy ziddiyatlardan tashqari bugungi kunda fundamental xarakterga ega bo'lgan kuchli jarayon tafakkur va dunyoqarash tarkibining va tizimining ildizlarida tub o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Insoniyat madaniyat va ma'naviyat jarayonida bir butunlik tomon intilmoqda [3;8]. Hozirgi kunda dunyo miqyosida har soniyada bir yangilik yoki boshqa bir texnologik o'zgarish sodir bo'layotganini ko'rish mumkin. Jamiyat faoliyatining barcha sohalarida raqobat muhiti shakllanib bormoqda. Bunday muhitda sobitqadam bo'lish, birinchi navbatda raqobatbardosh, salohiyatli, vatanparavar va jonkuyar bo'lgan yosh-avlodni tarbiyalash muhim vazifalardan biridir. Har bir o'zgarish chuqur bilim, yuksak salohiyat talab qilishi shubhasiz. Bunday raqobatli muhitni to'g'ri anglagan dunyodagi barcha o'z istiqbolini belgilab olgan davlatlar ta'lim va tarbiyaga katta investitsiya kiritib bormoqdalar. Ta'lim sifati yuqori bo'lgan davlatlarning ilg'or tajribalari o'rganilib, amaliyotiga tadbqiq qilinib salmoqli natijalarga erishib kelayotganligini ham aytish joiz. Bunday jarayonlar ta'limga zamonaviy tus beribgina qolmasdan, xalqarolashuv tendensiyalarini kuchaytiradi.

Adabiyotlar tahlili. Shu ma'noda aytishimiz mumkinki, bugungi ta'lim va tarbiya jarayoni jiddiy transformatsiya holatini boshdan kechirmoqda. Xususan, mamlakatimizda ta'lim sohasidagi davlat siyosati uzluksizligining davomiyligi, ta'lim tizimi qat'iy prinsipiga asoslanganligi, bola tug'ilganidan boshlab, 30 yoshgacha bo'lgan davrda uni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o'rin topishi uchun ko'mak beradigan, yaxlit va uzluksiz ta'lim va tarbiya tizimini yaratishga qaratilgan harakatlarimiz bejizga emas. Umuman olganda, ta'lim va tarbiya uzviyligini ta'minlash qanchalik murakkab masala bo'lsa, uni tashkiliy jihatdan "qurollantirish" texnologiyalarini yangi zamonga moslab borish, undanda [4;35] muammo hisoblanadi. Dunyo hamjamiyatida yoshlar tarbiyasi, ularni hayotga tayyorlash, kasb tanlashga o'rgatish, ularda zamonaviy tendensiyalarga moslasha olish ko'nikmalarini shakllantirish kabi masalalar doim dolzarbligi va ahamiyatini yo'qotmaydi [5;66]. Inson o'zining ijtimoiy-madaniy rivojlanishi jarayonida ajdodlarining milliy qadriyatlarini ijodiy o'zlashtiruvchi, zamoniylashtiruvchi,

boyituvchi va o'zgartiruvchidir. Ana shu insoniy burchlarning har bir shaxs tomonidan mukammal bajarilishi ijtimoiy taraqqiyotning boy, rang-barang madaniy oqimlarini hosil qiladi, saqlab turadi. Shu nuqtai nazardan, har bir inson o'zida tarixiy, ijtimoiy, madaniy-milliy ko'rsatkichlarni mujassamlashtiruvchi [6;8] tarbiya mahsulidir. Maqolada shu singari masalalar tahlil etilgan, xulosalar umumlashtirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot mobaynida anglanildiki, axborot texnologiyalari bugungi ijtimoiy hayotni juda tez fursatda o'zgartirdi va bu jarayon tadrijiy davom etmoqda. Buning samarasini hozirda barcha insonlarning turmush tarzida hamda kamolga bo'y cho'zib borayotgan yoshlar nigohida ham bilish mumkin. Nega aynan raqamli texnologiyalar deyilganda ko'pincha, yosh-avlodning imkoniyat darajalari nazarda tutiladi? Sababi, kun sayin takomillashib borayotgan yangi global o'zgarishlar va yangilikka qiziqish, dunyoqarashi asta-sekinlik bilan o'sib, shakllanayotgan yosh xususiyatlarga xos jihat hisoblanadi. O'rganishlar davomida zamonaviy ta'lim jarayonlari yosh-avlodni intellektual jihatdan yuksalishidagi foydali imkoniyatlari, paydo bo'layotgan turli muammolar hamda kamchiliklar tahliliy yondashuv misolida solishtirildi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim konsepsiyalari, milliy tarbiya konsepsiyasi, ilg'or innovatsion yangiliklar, ilm-fan yutuqlari qiyosiy o'rganib chiqildi.

Tahlil va natijalar. XXI asrda har jabhada zamonaviylashib borayotgan insoniyat hayoti muntazam yangilik tomon ildam bormoqda. Insoniyat o'z ehtiyojlari va maqsadlariga erishish yo'lida barcha kuch va imkoniyatlarini ishga solayotganligini va bu yo'lda eng muhim omil ilm-fan, ta'lim va tarbiyaga e'tiborni chuqur qaratgan holda o'zining ko'zlagan maqsadlariga erishib kelmoqda. Bu albatta oiladagi yaxshi tarbiya va ilm maskanidagi sifatli ta'limga bevosita uzviy bog'liq. Ilm o'rganish har bir mo'min va muslima uchun farzdir. Zeroki, ilm kishini serviqor, o'z kuchiga ishongan, bosiq va tadbirkor shaxsga aylantiradi. Inson o'zligini, kurash yo'lini, istiqbol baxtini, ijod qilish zavqini, o'ylash va hisoblash zahmatini faqat ilm olish jarayonida sezadi, bilim olish orqali tasavvurga ega bo'ladi. Bilimli inson jamiyatda bo'ladigan har qanday o'zgarishlarga o'z munosabatini bildirish imkoniga ega bo'lish bilan birga, taraqqiyot yo'llarini ham belgilab bera oladi va xalqiga yetakchilik qiladi. Fransuz yozuvchisi Viktor Gyugo: «Odamning ulug'ligi bo'yi bilan o'lchanmaganidek, xalqning ulug'ligi ham uning soni bilan o'lchanmaydi. Yagona o'lchov, uning aqliy kamoloti va axloqiy barkamolligidir», deb yozgan edi. Darhaqiqat, ilmiy, bilimli kishilar faqatgina aqliy barkamolgina emas, balki axloqiy barkamol hamdir, bu esa bugungi jamiyatimiz [7;94] uchun ayni muddaodir. Bizga ma'lumki, jahondagi har bir davlat o'zining milliy ta'lim tizimiga ega. Har bir soha o'z taraqqiyoti yo'lida islohotga muhtoj bo'lgani singari ta'lim tizimi ham bundan mustasno emas. Ta'lim tizimini tobora innovatsion texnologiyalar va g'oyalar bilan boyib borishi, boshqa bir ta'lim jarayoni bilan uyg'unlashuvi bugungi davr talabidir. Har qaysi ilg'or zamonaviy ta'lim jarayoni, milliy tarbiya bilan uyg'un holda olib borilsa yuqori samara beradi. Zero, insonda tarixiylik, milliylik, milliy mentalitet, milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur, vatanparvarlik tuyg'ulari ushbu omillar ta'sirida yuzaga keladi. Ta'limda ilg'or natijalar bilan muvaffaqiyatga erishib kelayotgan mamlakatlarda ham ushbu ustuvorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Barkamol shaxsni tarbiyalash barcha davrlarda jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi bo'lib kelgan. O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi ta'lim muassasalarining oldiga yangi demokratik davlatning fuqarolarini shakllantirishdek muhim vazifani qo'ydi. Tabiiyki, hozirgi ta'lim islohotlari sharoitida ham barkamol shaxs tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun ham, bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimida shaxsning ma'naviy-ma'rifiy shakllanishi bilan bog'lik bo'lgan savollarga javob berish, uzluksiz ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarni shu yo'nalishdagi ko'nikma va malakalarini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar berish, ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish uslubiyotini taklif etish, ularda treninglar va ochiq munozaralar o'tkazish, shuningdek, mashg'ulotlarni yakka, juftlik, kichik guruhlar va jamoa tartibida tashkil qilish va o'tkazish hamda o'quvchilarni tarbiyaviy jarayonga jalb etish masalalariga bag'ishlangan kerakli uslubiy tavsiyalar va maslahatlarni pedagog kadrlarga yetkazish hozirgi kunning [8;92-93] dolzarb vazifalaridan biridir. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsini barcha imkoniyatlarini yuzaga chiqarish uchun albatta ta'lim shaxsga

yoʻnaltirilgan xarakterga ega boʻlishi talab etiladi. Buning uchun taʼlimni tashkil etish jarayonida oʻquvchining qobiliyatlari, ehtiyojlari va oʻziga xos jihatlari hisobga olish lozim [9;21]. Hozirda oʻquv jarayoni tobora raqamlashib, onlayn darslar, elektron platformalar, suniy intellektning takomillashishi kuchayib bormoqda. Yosh-avlodni ijodkor, tanqidiy fikrlaydigan, zamonaviy dunyoqarashga ega boʻlib shakllanishida bu juda muhim omildir. Oʻquvchilar raqamli texnologiyalardan foydalanish asnosida elektron kutubxonalar, ilmiy platformalar bilan ishlashi, mustaqil bilim olish imkoniyatini oshirishi, oʻzini qiziqtirgan fanlar boʻyicha qoʻshimcha shugʻullanishi, xorijiy tillarni va zamonaviy kasblarni oʻrganishi kabi koʻplab imkoniyatlarga ega boʻlishmoqda. Taʼlim jarayonlarida integratsiyalashuv ortib borgani sari global mehnat bozorida erkin raqobat qilish muhiti shakllanadi. Xalqarolashuv jarayonlari bilim, tajriba, kadrlar salohiyati va koʻplab imkoniyatlar eshigini ochishi shubhasiz. Albatta oʻzining jonajon yurtini sevgan, milliy oʻzligini anglagan, vatanparvar, jonkuyar va tashabbuskor yoshlar zamonaviy muhitda milliy gʻurur va iftixor tuygʻulari orqali taʼlim va tarbiya olishi mamlakat barqarorligida muhim omil boʻlib xizmat qiladi.

Xulosa. Bugungi tez oʻzgarib borayotgan axborot makonida, zamonaviy taʼlim va milliy tarbiya integratsiyasi juda muhim ijtimoiy ahamiyati ega omil sanaladi. Taʼlim va tarbiyaga eʼtiborning yuqoriligi farovonlikni, taraqqiyotni taʼminlashga xizmat qiladi va aksincha unga eʼtiborsizlik va loqaydlik, beparvolik bilan qarash taraqqiyot uchun gʻov, tanazzulga olib boruvchi sababdir. Biz yashayotgan makon globallashuvning taʼsirida tobora oʻzgarishda, turfa-xillikda shakllanib borayotganligi hamda insoniyat tobora raqamli muhit taʼsiriga moslashib borishi va ushbu omilning hayoti, turmush tarziga ham sezilarli oʻz taʼsirini oʻtkazib kelayotganligi shubhasiz. Demak, zamonaviy taʼlim bilan milliy tarbiya integratsiyasi bu nafaqat taʼlim sifatini yuksaltiradi, balki jamiyatdagi maʼnaviy-axloqiy barkamollikni taʼminlashga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasi". –T.: Oʻzbekiston, 2022. – B.261.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Hozirgi zamon va yangi Oʻzbekiston". –T.: Oʻzbekiston, 2024. – B.121.
3. Karimov S.K., A.R.Samadov, U.T.Yazdanov, R.Sh.Toshquvatova, M.Allayarova, Sh.T.Tursunqulova. "Sharq falsafasining zamonaviy yoʻnalishlari". –T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2021. – B.8.
4. Yazdonov U.T. "Taʼlim va tarbiya integratsiyasi (tizimli yondashuv metodologiyasi)". – S.: "Samarqand davlat chet tillar instituti", 2024. – B.35.
5. Raxmonova M.Q. "Milliy tarbiya asoslari". – T.: 2025. – B.66.
6. Quronov M. "Milliy tarbiya" – T.: Maʼnaviyat, 2007. – B.8.
7. G.Niyozov, Q.Ahmedov. "Sharqona odob-axloq-milliy tarbiyamiz asosi" – T.: Oʻzbekiston, 2012. – B.94.
8. Ishmuhammedov R., Yuldashev M. "Taʼlim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar". – T.: "Nihol" nashriyoti, 2013. – B.92-93.
9. Yoʻldoshev S., Xolmatova E. "Zamonaviy taʼlimda pedagogik texnologiyalar va ilgʻor xorijiy tajribalar". – F.: 2022. – B.21.